# Farg‘ona viloyatida chakana
# Va ulgurji savdo tovar aylanmasi

*2026- yil yanvar-may dastlabki ma’lumot*

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
II.ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
III.UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDOAYLANMASI
IV.METAMA’LUMOTLAR

## I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 383 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 46 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 337 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-may oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 16 849,4 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 113,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 2508,8 mlrd so‘mni(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 134,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 12 512,7 mlrd so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 827,9 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 132,2 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’ati** *(%da)*



**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi**
*(ulushi foizda)*




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 508 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 33 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 496 tani tashkil qildi.

Viloyat bo‘yicha 2026- yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 12 564,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 19,7 % ga o‘sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 11 534,9 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 115,3 % ga to‘g‘ri keldi va viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 91,8 % ni tashkil qildi.

**Ulgurji savdo hajmi dinamikasi***(mlrd so‘m)*



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar Dang'ara (400 m.) va O'zbekiston (137 m. ) kuzatildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘sish sur’atlari***(foizda)*




## III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 053 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 046 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 9 539,1 mlrd so‘mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 74,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’atlari *(foizda)*




## IV. METAMA’LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiyhujjatlari, shuningdek, xalqaro ko‘rsatmalar va tavsiyalar “Milliy hisoblar tizimi – 2008”, “Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar” (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko‘rsatkichini hisoblash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo‘mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda hisoblangan.


| **Chop etishga masul:** | **Bo‘lim boshlig‘i:** | **Ijrochi:** | **Manzil: Farg‘ona**sh., |
|---|---|---|---|
| Xizmatlar va savdo sohasi statistikasibo‘limi | Tel: +998732419768 | Tel: +998732419768 | Oq’yolko‘chasi, 104-a |